Klaster nazariyasiga oid ilmiy qarashlarga ko'ra, T.V. Sixan klasterlarning shakllanishiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni quyidagicha izohlaydi: ular, odatda, fan va ta'lim muassasalari bilan uzviy bog'liq bo'lgan hududiy jihatdan yaqin tarmoqlar iqtisodiy faoliyatining shakllari va yo'nalishlarini, vertikal ishlab chiqarish-iqtisodiy zanjirlarni hamda ishlab chiqarish jarayonining o'zaro bog'liq bosqichlarini qamrab oladi [3]. Ushbu yondashuv iqtisodiy klasterning hududiy-geografik, innovatsion, integratsion va tarmoq xususiyatlarini keng qamrovda yoritadi. Biroq, mazkur yondashuvda klasterlashning amaliy natijalari, xususan, turizm sohasida qo'llanish imkoniyatlari yetarli darajada ochib berilmaganligi kuzatiladi. Shu jihatdan, klasterlash orqali qanday natijalarga erishish mumkinligi va uning asosiy maqsadlari nimalardan iborat ekanligini aniqlashtirish zarurati mavjud.

Ye.S. Kusenko o'z ilmiy yondashuvida klaster tarkibiga kiruvchi korxonalarda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish yuqori darajada amalga oshirilishini ta'kidlaydi, bu esa klasterlashning muhim ustunliklaridan biri sifatida e'tirof etiladi [4]. N.A. Pelevina esa turistik klasterlarni vertikal emas, balki gorizontaal tuzilishga ega bo'lgan, turli sohalarga mansub tashkilotlarni birlashtiruvchi yirik tarmoqlararo ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish majmuasi sifatida tavsiflaydi. Uning fikriga ko'ra, turistik klaster — bu turizm resurslari va infratuzilmasidan samarali foydalanish orqali iste'molchilar ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi o'zaro bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimidir [5]. Shu bilan birga, turistik klasterlarni boshqa tuzilmalardan ajratib turuvchi asosiy jihatlari sifatida ularning ekstraterritorial xususiyati, resurs bazasining kengligi hamda raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilganligi ko'rsatib o'tiladi [6].

T.Ye. Kurmayevning yondashuviga ko'ra, mintaqada turistik-rekreatsion klasterlarni shakllantirishning asosiy maqsadi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, rivojlanish darajasini oshirish va sinergik samaraga erishish orqali infratuzilmani takomillashtirishdan iborat. Bu jarayon, o'z navbatida, klaster ishtirokchilari faoliyati samaradorligini oshirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish hamda yangi turizm yo'nalishlarini rivojlantirish imkonini beradi [7]. V.A. Vasilevning ta'kidlashicha, iqtisodiy klasterlar globallashtirish sharoitida raqobatbardosh ustunliklarga tezkor erishish imkonini beruvchi, manfaatdor tomonlarning sa'y-harakatlarini birlashtiruvchi samarali tashkiliy shakl hisoblanadi [8]. Shu nuqtai nazardan, klasterlash jarayonlari hududiy rivojlanish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim vosita sifatida namoyan bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzu doirasidagi muammolarni chuqur tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil usullari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar hamda O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida olingan ma'lumotlardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Malakali kadrlar tayyorlovchi mintaqaviy turistik klaster o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan murakkab tizim sifatida tavsiflanadi. Bunday klasterni shakllantirishning muhim shartlaridan biri xo'jalik yurituvchi subyektlarning geografik jihatdan yaqin joylashganligidir. Mazkur hududlarda ishlab chiqaruvchi va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar hamda turli tashkilot va firmalarning jamlanishi ishlab chiqarish ko'lami va diversifikatsiyani kengaytirish, shuningdek, axborot va resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Natijada, ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi mintaqaviy klasterlarning raqobatbardoshligini sezilarli

darajada oshiradi. Klasterlarning geografik qamrovi esa bir shahar yoki viloyatdan tortib, butun mamlakat yoki hatto qo'shni davlatlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Malakali kadrlar tayyorlovchi mintaqaviy turistik klasterlarni tashkil etish bo'yicha xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ularni davlat-xususiy hamkorlik tamoyillari asosida shakllantirish ularning barqaror va tezkor rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat ushbu klasterlarning shakllanishi va rivojlanishida, ayniqsa dastlabki bosqichda, muhim rol o'ynaydi hamda turizm biznesi subyektlari bilan strategik hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Amaliyotda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlikning turli shakl, model va mexanizmlari mavjud bo'lib, ular klaster rivojiga xizmat qiladi. Xususan, davlat klaster ishtirokchilari uchun institutsional va infratuzilmaviy platformalar yaratadi, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini amalga oshiradi, hududiy brendni shakllantirish orqali xorijiy turistlarni jalb etishga ko'maklashadi.

Mintaqalarni rivojlantirishda ustuvor tarmoqlarda klasterlarni shakllantirish nafaqat o'rta muddatli, balki uzoq muddatli strategik istiqbollarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon globallashuv va xalqaro raqobat sharoitida iqtisodiyotning raqobatbardosh tuzilmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, hududiy rivojlanishning strategik maqsadlariga erishishda klaster yondashuvi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.


Qo'shimcha qiymat yaratish jarayonida o'zaro bog'liq klasterlarni shakllantirishda ishlab chiqaruvchi korxonalar, yordamchi va infratuzilmaviy tashkilotlar yuqori texnologik hamda raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarni yaratish maqsadida yagona tizim doirasida integratsiyalashadi. Bunday yondashuv tarmoqlar o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlab, umumiy iqtisodiy natijadorlikni oshiradi. Klasterlarning samarali faoliyati turizm xizmatlarining sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash, tarmoqlararo bog'liqlikni kuchaytirish hamda hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish orqali namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi hamda mintaqalarni kompleks rivojlantirish imkoniyatlarini inobatga olgan holda, ixtisoslashtirilgan turistik klasterlarni tashkil etishda hududlarni quyidagi mintaqalarga ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi: Toshkent (Toshkent viloyati va Toshkent shahri), Farg'ona (Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari), Jizzax-Sirdaryo (Jizzax va Sirdaryo viloyatlari), Samarqand (Samarqand viloyati va Samarqand shahri), Buxoro-Navoiy (Buxoro va Navoiy viloyatlari), Janubiy turistik mintaq (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari), Xorazm (Xorazm viloyati) hamda Quyi Amudaryo (Qoraqalpog'iston Respublikasi). Ushbu sakkizta mintaqani alohida ixtisoslashtirilgan klasterlar sifatida rivojlantirish hamda ularni turistik jozibadorlik darajasiga ko'ra guruhlash maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruhga o'rtacha turistik jozibadorlikka ega bo'lgan mintaqalarni kiritish taklif etiladi. Ushbu hududlarda turistik infratuzilma rivojlanib borayotgan bo'lib, turistik oqimni oshirish uchun mavjud salohiyatdan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud. Mazkur guruhga Jizzax-Sirdaryo, Farg'ona, Quyi Amudaryo va Janubiy turistik mintaqalarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi guruhga Toshkent va Samarqand mintaqalari kiritiladi. Ushbu hududlar nafaqat turistik, balki ish-bilarmonlik va xizmat ko'rsatish yo'nalishlari bo'yicha ham rivojlangan bo'lib, tarixiy-madaniy hamda rekreatsion resurslarga boyligi bilan ajralib turadi.

Uchinchi guruhga Buxoro-Navoiy va Xorazm mintaqalari kiritilishi taklif etiladi. Ushbu hududlarda madaniy-tarixiy turizm yuqori darajada rivojlangan bo'lib, mavjud infratuzilma turistik xizmatlarni samarali tashkil etish imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Mintaqaviy turizm sohasida sifatli va salmoqli turizm xizmat nuqtai-nazaridan ixtisoslashtirilgan klasterlarga bo'linishi¹.

1 Tadqiqotchi ishlamasi.



Respublikamizning turistik mintaqalarida turizm rivojlanishini kompleks baholaydigan maxsus bo'limlar va malakali mutaxassislar faoliyatini takomillashtirish zarurati mavjud bo'lib, bu turistik salohiyatga ega hududlarning rivojlanish strategiyasini samarali loyihalashni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy o'sishning asosiy manbalari sifatida hududlarning ichki resurslarini aniqlash va ulardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan "o'z-o'zini rivojlantirish" tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qoidaga ko'ra, resurslar cheklangan sharoitda faoliyat yurituvchi bir nechta hududlarning salohiyatini birlashtirish ulardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi hamda yuqori iqtisodiy natijalarga erishish imkonini yaratadi. Shu sababli, ko'p bosqichli va hududlararo o'zaro aloqalarning ahamiyatini hududiy rivojlanishni boshqarishning muhim tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etish dolzarbdir.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, respublikamizning turistik salohiyatini yanada rivojlantirish, undan foydalanish samaradorligini oshirish, hududlarga xorijiy va mahalliy turistlarni keng jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy infratuzilmani jadal rivojlantirish hamda turistik, mehmonxona va transport xizmatlari hajmi va sifatini oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan Toshkent viloyatining Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsion zonasi doirasida "Chorvoq" erkin turistik zonasini tashkil etish to'g'risidagi farmon qabul qilindi [9]. Ushbu tashabbus turistik-rekreatsion zonalarni tashkil etish va ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali mintaqa turizm industriyasini faol rivojlantirish, natijada esa hududiy hamda milliy iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mintaqalar kesimida olib borilgan tahlillar, jumladan, Jizzax erkin iqtisodiy zonasi misolida, qishloq xo'jaligi, tog'-kon sanoati va turistik-dam olish yo'nalishlarida klasterlarni rivojlantirish uchun zarur infratuzilmaviy imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Respublika va xalqaro ahamiyatga ega tarixiy-madaniy hamda tabiiy yodgorliklarning saqlanib qolganligi, alohida muhofaza etiladigan hududlarning mavjudligi, shuningdek, dam olish va faol rekreatsiya uchun mos bo'lgan boy tabiiy resurslar Jizzax mintaqasini respublikadagi jozibador turistik yo'nalishlardan biriga aylantirish imkonini beradi.

Markaziy mintaqaviy turizm hududidagi mavjud holatni tahlil qilish asosida respublikada turizmi rivojlantirish imkoniyatlari quyidagilar bilan tavsiflanadi: sog'lomlashtirish turizmi uchun xizmat qiluvchi sanatoriy-kurort muassasalarining shakllangan tizimi mavjudligi; tog' va qishki turizm, sog'lomlashtirish, spa-xizmatlar, madaniy, suv va sarguzasht turizmini rivojlantirish uchun keng salohiyatning mavjudligi; tog'-chang'i sportini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy infratuzilma elementlarining shakllanganligi; hamda boshqa hududlarga nisbatan rivojlangan turar joy tizimining, jumladan, milliy uy mehmonxonalari tarmog'ining mavjudligi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz fuqarolari uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar natijasida ichki turizmga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Shu bilan birga, ayrim kurort hududlarida infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanishni cheklab kelmoqda. Ushbu imkoniyatlarni yanada kengaytirish maqsadida olib borilgan tadqiqotlar iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, ichki turizm xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borishi hamda Jizzax mintaqasining yuqori turistik salohiyatini inobatga olgan holda turizmi rivojlantirishning yangi shakli sifatida ixtisoslashtirilgan turistik-rekreatsion klasterlarni tashkil etishni nazarda tutadi.

Mintaqada bunday klasterlarni shakllantirishda, avvalo, davlat, xususiy sektor, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, yagona marketing strategiyasini ishlab chiqish, reklama faoliyatini optimallashtirish hamda hududiy brendlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, klaster tuzilmasiga barcha ishtirokchilar uchun umumiy bo'lgan muvofiqlashtiruvchi kengashni va tizim integratori sifatida faoliyat yurituvchi yetakchi kompaniyalarni kiritish innovatsiyalar transferini jadallashtirish, yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish hamda yangi bozorlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Natijada diversifikatsiyalangan turistik mahsulotlarni yaratish va ularning raqobatbardoshligini oshirish ta'minlanadi.

Geografik joylashuv nuqtai nazaridan, Jizzax viloyati bilan tutash hududlarda joylashgan Urgut, Samarqand va Jomboy tumanlari rekreatsion turistik jozibadorlik darajasi yuqori bo'lgan hududlar qatoriga kiradi. Ushbu hududlarda turistik oqim asosan tabiiy manzaralar va rekreatsion yo'nalishlarga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mintaqada turistik-rekreatsion klasterlarni yanada kengaytirish maqsadida Samarqand shahri hamda Paxtachi tumanini ham klaster tarkibiga kiritish maqsadga muvofiqdir. Bu esa iqtisodiy o'sish sifatini barqaror va uzoq muddatli yaxshilash, hududning ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish, atrof-muhit omillarini hisobga olish hamda rivojlanishning keyingi bosqichlariga o'tishni ta'minlovchi zamonaviy hududiy boshqaruv usullarini qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi (1-jadval).


1-jadval. Markaziy mintaqaviy turizm hududidagi turistik-rekreatsion salohiyatining SWOT-tahlili²

Kuchli taraflari (Strengths)	Kuchsiz taraflari (Weaknesses)
<ul style="list-style-type: none"> • Klaster hududining ommabopligi • Turistlarning xavfsiz yetib kelishi • Ekologik toza tabiat • Noyob flora va fauna mavjudligi • Boy madaniy-tarixiy resurslar • Tibbiy-sog'lomlashtirish resurslari • Turistik-rekreatsion salohiyat yuqoriligi • Qulay tabiiy va iqlimiy sharoitlar • Milliy va tabiiy yodgorliklar mavjudligi • Samarqand, Jizzax, Buxoro shaharlarida zamonaviy transport infratuzilmasi • Qulay transport yo'llari tugunida joylashganligi 	<ul style="list-style-type: none"> • Infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi • Kadrlar tajribasining pastligi • Xizmat ko'rsatish sifati pastligi • Narx va sifat o'rtasidagi nomutanosiblik • Past iqtisodiy salohiyat • Davlat va biznes o'rtasida muvofiqlashtirish yetishmasligi • Hududiy brendning yo'qligi
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
<ul style="list-style-type: none"> • Hududni jozibali turistik maskan sifatida rivojlantirish • Yangi mehmonxonalar va joylashtirish vositalarini qurish • Turistik-rekreatsion infratuzilmani kengaytirish • Transport va kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish • Milliy oshxona va xizmatlar sektorini rivojlantirish • Yo'l va yo'lbo'yi infratuzilmasini yaxshilash • Investirlarni jalb qilish imkoniyati • Aholining turmush darajasi va dam olish madaniyatining oshishi 	<ul style="list-style-type: none"> • OAV tomonidan noto'g'ri axborot tarqalishi • Mintaqaviy geosiyosiy omillar (qo'shni davlatlar bilan bog'liq xavotirlar) • Turistlarning boshqa rivojlangan hududlarga ketishi • Xizmat sifatining barqaror emasligi

Mintaqaviy turizm sohasida hozirgi paytda ikki yuzdan ortiq kasb egalari faoliyat yuritayotgan bo'lsa-da, ushbu sohada turli mutaxassislarga bo'lgan talab hali to'liq qondirilmaganligi kuzatilmoqda. Mazkur holatni pandemiyadan keyingi 2020-2025-yillar davomida iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida izohlash maqsadga muvofiqdir.

Xususan, markaziy turizm mintaqasi viloyatlaridagi mehmonxonalarda malakali mutaxassislarga bo'lgan talabni aniqlash maqsadida o'tkazilgan tahlillar hamda ijtimoiy so'rovnomalar natijalari ushbu tendensiyani yaqqol tasdiqlaydi.

Jumladan, 2024-yilda markaziy turizm mintaqasi viloyatlaridagi mehmonxonalar va turistik firmalarda mutaxassislarga bo'lgan talab darajasi 2-rasmda ifodalangan.



2-rasm. Markaziy mintaqaviy turizm viloyatlari mehmonxonalarida 2024- yilda malakali mutaxassislarga bo'lgan talab.³


2 Muallif ishlanmasi.

3 Muallif ishlanmasi.



2 va 3-raslarda keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, markaziy turizm mintaqasi viloyatlarida turistik firmalar asosan ichki va tashqi turizm yo'nalishlari bo'yicha menejerlarni, shuningdek, avia va temir yo'l chiptalarini rasmiylashtirish hamda mehmonxonalarni bronlashning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlay oladigan malakali mutaxassislarni jalb etishga intilmoqda.

Markaziy turizm mintaqasi viloyatlarida turizm sohasi uchun zarur bo'lgan turoperatorlar, turizm menejerlari va turizm marketingi bo'yicha mutaxassislar asosan Samarqand shahrida faoliyat yuritayotgan Samarqand "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti hamda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tomonidan tayyorlanmoqda. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlar, jumladan, ofitsiantlar, xona bekalari, shveysarlar va boshqa kasb egalari Sartepo turizm va maishiy xizmat kasb-hunar kollejida tayyorlanadi (3-rasm).



3-rasm. Markaziy mintaqaviy turizm viloyatlari hududlarida turistik firmalarda 2024- yilda malakali mutaxassislarga bo'lgan talab⁴

Markaziy turizm mintaqasi viloyatlarida turizm sohasi uchun zarur bo'lgan turoperatorlar, turizm menejerlari va turizm marketingi bo'yicha mutaxassislar viloyatda so'nggi yillarda faoliyat boshlagan Samarqand "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti hamda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tomonidan tayyorlanmoqda. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlar, jumladan, ofitsiantlar, xona bekalari, shveysarlar va boshqa kasb egalari Sartepo turizm va maishiy xizmat kasb-hunar kollejida tayyorlanadi. Bundan tashqari, zamonaviy internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi turizm sohasi xodimlaridan ushbu yo'nalishni chuqur bilishni, ish faoliyati jarayonida yangi bronlashtirish tizimlari hamda innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llashni talab etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, bronlashtirish xizmatlarini amalga oshiruvchi operator va menejerlarga bo'lgan ehtiyojning ortishiga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavjud malakali kadrlar tayyorlovchi muassasalar salohiyati, transport infratuzilmasi imkoniyatlari, hududlarning geografik joylashuvi, turistik xizmatlarning diversifikatsiyasi va ularni rivojlantirish imkoniyatlari kompleks tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, "Jizzax turistik-rekreatsion klasteri" tarkibiga viloyatdagi bitta shahar hamda to'rtta tumanda joylashgan turistik obyektlar va xizmat ko'rsatuvchi subyektlarni kiritish mumkinligi asoslab berildi. Ushbu hududlarning turistik ixtisoslashuvi, tabiiy-iqlim sharoitlari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan o'zaro yaqinligi ularni yagona klaster tizimiga integratsiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratadi (2-jadval).

4 Muallif ishlanmasi.

2-jadval. Markaziy mintaqaviy turizm hududida malakali kadrlar tayyorlovchi klasterini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari⁵

Hudud nomi	Turizm turlari	Turizm ixtisosligi
Samarqand shahri	-tarixiy, madaniy-ma'rifiy; -biznes-turizm; tibbiy-sog'lomlashtirish; -sport; -shopping turizm.	-mehmonxona majmuasining rivojlanishi; -akvapark tashkil etish; -shaharning ko'ngilochar markazini yaratish; -bolalar ta'lim markazlarini yaratish; -Markaziy turistik mintaqasi umumiy fonini yaratish; -shaharning turistik sohada rivojlantirish rejasini ishlab chiqish.
Jizzax shahri	-sport va tibbiy-sog'lomlashtirish; -sarguzashtli; -ekologik; -suvli kruiz	-sport o'yinlari (milliy kurash va ko'pkari-uloq) bilan birgalikda namunaviy turistik destinasiya yaratish; -davlat ahamiyatidagi geopark-larni yaratish; -spa-kurortlarni yaratish; -ekologik parkni yaratish; -Aydarko'lda kruizni rivojlantirish.
Zomin tumani	-sport va qishki sport turlari; -ekologik; -sarguzashtli va ekzotik; -etnografiya; -suv sporti; madaniy-ma'rifiy; -alpinizm.	-mehmonxona majmuasini yaratish; -tog'-chang'i trassasi bilan ekstrim markaz qurilishi; -vizit-markaz, "Tog'-o'rmon" ekomajmuasini va turistik markazni yaratish; -"Zomin suv ombori"da mahalliy ahamiyatga ega rekreatsion maydonda turistik manzilgoh qurish; -sport o'yinlarini (ko'pkari-uloq) rivojlantirish markazini barpo etish.
Buxoro shahri	-tibbiy-sog'lomlashtirish; -madaniy-ma'rifiy; -agroturizm; -qishloq turizmi.	-tibbiy-sog'lomlashtirish bo'yicha jihozlangan sayyohlik obyektlari qurish; -"qishloqda bir kun"- turistik markazini qurish; -katta yo'l yoqasida kemping qurish; -agroturizmning tashkiliy markazini barpo etish.
Urgut	-alpinizm; -tibbiy-sog'lomlashtirish; -madaniy-ma'rifiy; -ekzotik; -agroturizm.	-sog'lomlashtirish va spa-kurortlarni yaratish; -tural joy vositalari tarmog'ini rivojlantirish; -qo'shimcha turistik infratuzilmalarni rivojlantirish

Hududiy jihatdan tashkil etilayotgan klasterning umumiy turizm infratuzilmasini shakllantirishda Samarqand va Jizzax shaharlari, shuningdek, Zomin, Baxmal, Buxoro, G'allaorol va Forish tumanlari kesimida turizm turlari hamda ixtisoslashuv yo'nalishlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan kuzatuvlar va tahlillar natijasida (2-jadval) turistik-rekreatsion salohiyati yuqori bo'lgan hududlarning har biri uchun turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Taklif etilayotgan klasterning turistik-rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanish hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, yil davomida dam oluvchilarga turistik va rekreatsion xizmatlarni xalqaro darajada taqdim etish imkonini yaratadi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Samarqand va Jizzax shaharlarida tarixiy, madaniy-ma'rifiy va biznes turizmi; Buxoro va Forish tumanlarida ekologik, safari, plyaj, sport va tibbiy-sog'lomlashtirish turizmi; Zomin tumanida ekologik, sarguzasht, ekzotik va etnografik turizm, shuningdek, qishki sport, alpinizm va suv sporti yo'nalishlari; G'allaorol tumanida tibbiy-sog'lomlashtirish, madaniy-ma'rifiy hamda agroturizm; Urgut va Baxmal tumanlarida esa alpinizm, sport, sarguzashtli va agroturizm turlarini yil davomida rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud (4-rasm).



4-rasm. Malakali kadr tayyorlovchi "Markaziy mintaqaviy turizm klasteri"ning tavsiya etilayotgan tuzilmasi⁶

⁵ Tadqiqotchining izlanishlari natijasida ishlab chiqilgan.

⁶ Muallif ishlanmasi.



4-rasmda aks ettirilganidek, tavsiya etilayotgan malakali kadrlar tayyorlovchi “Markaziy mintaqaviy turizm klasteri”ning samarali faoliyat yuritishida klaster faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash asosiy boshqaruv funksiyasini bajaradi. Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan qabul qilinadigan qarorlar va ishlab chiqiladigan xulosalar boshqaruv kompaniyasi faoliyatining samaradorligini belgilab beradi. Shu bois, klaster faoliyatini samarali tashkil etishda muvofiqlashtiruvchi kengashning roli va mas’uliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

“Markaziy mintaqaviy turizm klasteri” tarkibiga kiritilgan korxonalarining o‘zaro uyg‘unlashgan holda faoliyat yuritishi natijasida klaster ichidagi iqtisodiy aloqalar mustahkamlanadi hamda korxonalar rivoji uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi. Bundan tashqari, klasterni tashkil etishning muhim ustunliklaridan biri uning qulay geografik joylashuvi hisoblanadi, xususan, mintaqa hududidan Toshkent-Termiz yirik avtomobil magistrali hamda respublikaning sharqiy va g‘arbiy hududlarini bog‘lovchi asosiy temir yo‘l liniyasi o‘tadi, bu esa transport-logistika imkoniyatlarini kengaytirish orqali turizm faoliyatining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, “Markaziy mintaqaviy turizm klasteri” mintaqaning raqobatbardoshligini ta’minlash, ya’ni o‘n-yigirma yil va undan ortiq muddatda turistik korxonalarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategiyani shakllantirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Bu jarayonda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillari sifatida biznes rahbarlarining faol pozitsiyasi hamda mintaqadagi turli manfaatdor guruhlar o‘rtasidagi samarali va konstruktiv hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, “Markaziy mintaqaviy turizm klasteri”ning muvaffaqiyatli faoliyati raqobat muhitining rivojlanganligi, samarali boshqaruvga yo‘naltirilganlik va mintaqa ma’muriyati tomonidan ko‘rsatiladigan institutsional qo‘llab-quvvatlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mintaqaviy turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida bir qator amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Avvalo, ta’lim muassasalari va turizm korxonalari o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni kuchaytirish zarur. Shuningdek, dual ta’lim tizimini joriy etish orqali talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Hududiy klasterlar doirasida yagona marketing strategiyasini ishlab chiqish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish turizm xizmatlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, kadrlar malakasini muntazam ravishda oshirish, ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish va investitsiyalarni faol jalb etish orqali turizm infratuzilmasini izchil rivojlantirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Гужина Г.Н. Критерии эффективности кадровой политики. - М.: 2015. С. 117
2. Маслоу А. Дальние пределы человеческой психики / А. Маслоу. - СПб. : Евразия, 1999. 430 с.
3. Цихан, Т. В. Кластерная теория экономического развития / Т. В. Цихан // Теория и практика управления. - 2003. - № 5. - С. 64-65.
4. Куценко, Е. С. Кластеры в экономике: практика выявления / Е. С. Куценко // Обозреватель-Observer. - 2009. - № 10. - С. 109-126.
5. Пелевина, Н. А. Кластерный подход к обеспечению развития туристско-рекреационной сферы региона / Н. А. Пелевина // Известия Российского государственного педагогического университета имени А. И. Герцена. - 2008. - № 86. - С. 340-344.
6. Пелевина, Н. А. Кластерный подход к обеспечению развития туристско-рекреационной сферы региона / Н. А. Пелевина // Известия Российского государственного педагогического университета имени А. И. Герцена. - 2008. - № 86. - С. 340-344.
7. Курмаев, Т. Э. Туристские кластеры как инклюзивное рекреационное поле / Т. Э. Курмаев // Проблемы и перспективы развития образования в России. - 2015. - № 37. - С. 177-179.
8. Васильев, В. А. Создание кластеров малых гостиниц. Повышение их конку-рентоспособности / В. А. Васильев // Next Stop. - 2008. - № 1.
9. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi , 06.12.2017 y., 06/17/5273/0363-son.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100